

SHAXSNING MA'NAVIY FAZILATLARINI YANADA BOYITISH
MA'NAVIY HAYOTIMIZNI YUKSALTIRISH OMILI

A.S. OTOKULOV

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

D.A. SOBIRQULOVA, SH.T. UMARALIYEVA

O'zbekiston Respublikasi IIV I-sonli Toshkent akademik litsey o'quvchilari

Annotatsiya. Mazkur maqolada inson jamiyatning qudrati ekanligi, milliy qadriyatlarimiz bo'lgan ma'naviy fazilatlarning asosiy mezonlarini inobatga olib, ma'naviy boyligimizni yanada yuksaltirish, shaxs ma'naviyatli bo'lib kamol topishida ma'naviy fazilatlarning o'rni, ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish jamiyat barqarorligini ta'minlash garovi ekanligi, ma'naviy fazilatlar va uning o'rnini-xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, ruhiyatiga asoslanib kelajakka ishonch va ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish zarurligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy fazilat, inson, ma'naviyat, urf-odatlar, an'analar, Vatan, xalq, ota-onas, tinchlik, totuvlik, mas'uliyat, daxldorlik, tarix, vatanparvarlik, qadriyat, tuyg'u, g'urur.

Аннотация. В данной статье рассматривается, что сила общества заключается в человеке, акцентируется внимание на основных критериях духовных ценностей, являющихся нашими национальными традициями, а также на необходимости дальнейшего укрепления нашего духовного богатства. Указывается, что роль духовных ценностей в формировании духовно зрелой личности и их укрепление является залогом стабильности общества. Подчеркивается, что духовные ценности и их место должны основываться на древних традициях, обычаях и духе нашего народа и что необходимо внедрять в наше сознание чувство уверенности в будущем и духовности.

Ключевые слова: духовная добродетель, человек, духовность, убеждения, традиции, Родина, народ, родители, мир, гармония, ответственность, неприкосновенность, история, патриотизм, ценность, чувство, гордость.

Annotation. This article discusses the concept that a person is the power of the state, taking into account the main criteria of our national values and moral virtues. It emphasizes the importance of further elevating our spiritual wealth, the role of moral virtues in an individual's spiritual development, and the fact that the enhancement of moral virtues ensures the stability of society. The article also highlights that the promotion of moral virtues should be grounded in the ancient traditions, customs, and spirit of our people, and stresses the necessity of instilling feelings of trust and knowledge for the future in our consciousness.

Keywords: moral virtues, person, spirituality, customs, traditions, homeland,

people, parents, peace, harmony, responsibility, relevance, history, patriotism, values, emotions, pride.

Bugungi kunda jamiyatimizning haqiqiy boyligi inson ekanini tushunamiz. Jamiyat Vataniga sadoqatli, ma’naviyati yuksak insonlar bilan faxrlanadi. Inson davlatning qudrati hisoblanadi, ma’naviyatli yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazayotgan millat kelajakka katta ishonch bilan qaraydi. Umrizning mazmuni farzandlarimizdir. Bu dunyoda munosib farzand ko‘rish, bog‘ yaratish kabi ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan bizning insoniy burchimizdir.

Asrlar osha millatimizning ma’naviyat, adolatparvarlik, ma’rifatsevarlik kabi ezgu fazilatlari yuksalib bormoqda. Millatimiz daholaridan bahra olib, bizning kelajagimiz Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahovaddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termizi, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari ajdodlarimizning fikrlariga tayanishimiz lozim.

Ma’naviy fazilatlar jamiyatimizning qon-qoniga singib ketgan sifatlardan biri hisoblanadi. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada yuksaltirish, farzandlarimizni Davlatimizning munosib o‘g‘il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma’naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmoqda. Shunga uchun ajdodlarimiz tarixi va madaniyatini, qadimiylar urf-odatlarimizni har tomonlama o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega.

Millatimizning eng yaxshi fazilatlari, o‘z Vataniga mehr-muhabbati, vatanparvarligi ma’naviyatni mustahkamlaydi. Tariximizga nazar tashlasak, ma’naviyatimiz bilan bog‘liq halollik, haromdan hazar, ta’magirlididan nafratlanish, kamtarlik, adolatparvarlik shu kabi eng oljanob fazilatlarga duch kelamiz. Fransuz olimi Marsel Brionning “Men kim Sohibqiron Temur” nomli kitobida Amir Temuring Qur’oni Karimni yoddan bilganligi, yirik ulamolar bilan diniy bahslarda so‘z yuritgani uning ma’naviyatini yuksakligi, iymoni qanchalar pok va mukammal ekani, fiqh ilmiga ega bo‘lganini bildiradi.

Xalqimiz urush yillarida o‘zlarini yemay, bolalariga yedirib-ichirmay, mutlaqo begona yordamga muhtoj insonlar bilan topganlarini bирgalikda baham ko‘rganlar. O‘sha og‘ir yillarda turli millatlarga mansub yetim bolalar o‘zbek oilalarida ota-ona mehrini oldilar. Butun bir xalq ana shunday yuksak oljanoblik va ma’naviy fazilatlarni namoyish etganligi haqidagi misollar tarixda kam topiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Ilm-ma’rifat va kasb-hunarga intilish, oilani muqaddas bilish, ma’naviy poklik, kattalarga - hurmat, kichiklarga - shafqat, ezgu qadriyatlarga - sadoqat kabi fazilatlar azaldan xalqimiz va millatimizning qonida bo‘lib kelgan. Biz mana shunday bebaho merosimizni nafaqat asrashimiz, balki uni yanada boyitishimiz, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishimiz kerak” [1].

Milliy ma’naviyatimizga mutlaqo begona bo‘lgan zararli g‘oyalar, tushuncha

va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta’bir joiz bo‘lsa, “Chaqirilmagan mehmon” bo‘lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg‘ak bolalarimizning pokiza qalbi va yuragiga kirib kelmoqda. Bularning barchasi biz uchun ogohlilik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib yangrashi zarur. Biz - g‘ururi baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yukotib qo‘ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi [2].

Odob-axloq, hayo-ibo, or-nomus, diyonat kabi boqiy qadriyatlar xalqimiz boy ma’naviyatining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Afsus, bugungi murakkab sharoitda “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida yoshlarimizga turli yot g‘oyalar, ma’naviy buzuqlik va axloqsizliklarni targ‘ib etishga urinayotgan ayrim g‘alamislar aynan ana shu bobomeros qadriyatlarimizga bolta urishga urinayotgani sir emas [3].

Ba’zi insonlar chiroyli bo‘lmasligi mumkin, lekin ularda ma’naviy fazilatlari ko‘p bo‘lsa, o‘zgalarning e’tiborini tortadi. Ishbilarmon kishi xushmuomala, ko‘ngli ochiq bo‘lishi, suhbatdoshi bilan so‘zlashganda o‘zining fikrlarini erkin ifoda eta olishi lozim. Insonning ichki dunyosini his etish, uni tushunish, oldindan bo‘ladigan muzokaralar yechimini his etish yoki o‘z hamsuhbatining kayfiyatini bilib, mavzuni o‘zgartirish qobiliyatiga ega bo‘lgan inson faqat ezgu maqsadni ro‘yobga chiqishiga sababchi bo‘ladi, yomonliklarning oldini oladi [4].

Ma’naviy tushunchaga e’tibor qaratamiz, ma’naviy fazilatlar – insonning ma’naviy qiyofasi, ijtimoiy hayot, ong va munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan, jamiyat taraqqiyoti va turmushi ta’sirida shakllangan ma’naviy xususiyat va xislatlarining umuminsoniy hamda milliy fe’l-atvor ko‘rinishlarini ifodalovchi tushuncha [5].

Ma’naviyatning axloqiy mezonlari inson tarbiyasi va kamolotida alohida o‘rin tutib, shaxs va jamiyat ma’naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllaridir. Masalan, urf-odatlar, an’analar, Vatanni sevish, o‘z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e’zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash, o‘z ishiga mas’uliyatli bo‘lish, o‘z Vatani taqdiriga daxldorlik hissi kabi yuksak ma’naviy fazilatlar o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketgan. 1-rasmda ko‘rsatilgan.

Ma’naviyatning insonlar tomonidan amalga oshiriladigan o‘ziga xos xususiyatlaridan odob, insonparvarlik, ezgulik, mehr-muruvvat, halollik, poklik, haqiqatgo‘ylik, vatanparvarlik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lish, kamtarlik, sharm-xayo, andisha, vijdon, oriyat, jasurlik, sahiylik, himmatlilik, muloyimlik, to‘g‘rililik, haqgo‘ylik, mehribonlik, odillik, qonunga bo‘ysunish, iyomon, e’tiqodlilik, vafodorlik, insof va diyonatlilik, samimiylilik va hokazolar ma’naviyatning ijobiy sifatlari sanaladi [6].



1-rasm. Shaxs kamolotini yuksaltiriltuvchi ma'naviy fazilatlar

Tarixdan bugungi kun davrigacha turli xalqlarning tinch va osoyishta yashashlari uchun doimo turli muammolar vujudga kelgan. Har tomonlama to‘liq ustun bo‘lgan davlatlar o‘zidan kuchsiz mamlakatning hududlarini egallash, ularning boyliklariga egalik qilish va oqibatda o‘z yurti sarhadlarini yanada kengaytirib ulkan davlat tuzishni maqsad qilishgani sir emas. Shunday maqsad yo‘lida turli hiylalar va harbiy kurashlardan foydalanilgan va egallangan hududning aholisi milliy urf-odatlari, qadriyatları, dinini yo‘q qilishga urinib, o‘zlarining dinini, urf-odatlarni, tilini singdirishga harakatlarni his qilish qiyin emas, inson ongini egallahdek faoliyat ko‘rinishida olib borilmoqda.

Milliy qadriyatlarni shakllantiradigan asosiy mezonlar millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, hayotiy qadriyatları bilan birga ma’naviy merosi, madaniy boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklaridir.

Urf-odat – ma’naviy hayat hodisasi, an’analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan, tarixan tarkib topgan tartib-qoida, rasm-rusum, tamoyil. (Masalan, o‘zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supurib sidirib, tartibga keltirib qo‘yish, mehmonlarga alohida hurmatda bo‘lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiyalganlardan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va b.). Urf-odat va rasm-rusumlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta’sirida shakllanadi hamda ularning o‘ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlardan biridir [7].

«Urf-odat – an’analar sifatida umumxalq tomonidan qabul qilingan tartib-qoida, rasm-rusum, tamoyil»lar jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olib, ularda o‘z ifodasini topadi. An’analar – qadimdan insoniyat hayatı, turmushi, mehnati va ibratli hayat saboqlari bo‘lib, avloddan-avlodga, o‘tmishdan kelajakka meros bo‘lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an’analar va urf-odatlarning amaliy ko‘rinishidir. An’analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy siyosiy va diniy bo‘lib, milliy qadriyatlarning ajralmas qismidir. Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an’analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy

ruh, milliy xulq, milliy odob-axloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma’naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr-muhabbatli bo‘lish, oila va Vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotni qadrlash kabi tuyg‘ularni shakllantiradi [8].

An’ana – tarixiy jihatdan uzviylik va vorisiylikni anglatadigan ma’naviy hayot hodisasi, ma’naviyatga xos ijtimoiy kategoriya, ajdodlarning tarixan to‘plagan ma’naviy qadriyatlarini avlodlarga uzatish (berish) vositasi. An’ana lug‘aviy ma’noda mavhum tushuncha bo‘lsa-da, aslida an’anaga aylangan rasm-rusumlar, urf-odatlar, marosimlar, udumlar, ko‘nikma, malaka, turmush tarzi va boshqalar haqida fikr yuritilganda, u aniq ma’no kasb etadi. Millatlar, xalqlar, elatlarning tarixiy xotirasiga zo‘r hurmat bilan qarash, avvalo, an’anaga aylangan jarayonlarda o‘z ifodasini topadi. An’analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi. Odamlarning turmush tarzi, moddiy sharoitlari turli an’analarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Muayyan ijtimoiy tartib-qoidalar, axloq me’yorlari, urf-odatlar, marosim va boshqalar An’ana sifatida namoyon bo‘ladi. An’analarni, ijtimoiy-tarixiy hodisa, jamiyat hayotidagi jarayonlarning tarkibiy qismi, kishilar hayoti va faoliyatini belgilash mezoni, jamiyat va odamlarni boshqarishning ma’naviy omillaridan biri sifatida ham tavsiflash mumkin [9].

Bugungi davrda va mustaqilligimizni mustahkamlash jarayonida Vatanni sevish, yurt tinchligini asrash, xalq farovonligi yo‘lida kurashish, ezgu amallar va savob ishlarni amalga oshirish – mamlakatimizdagi barqarorlikning mazmunini belgilaydi.

Vatanga mehr, avvalo, insonning o‘z oilasi, uyi, mahallasi hamda tug‘ilib o‘sgan yurtiga muhabbatdir. Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilatlardan ekani ko‘p zikr etiladi. Bu haqda “Vatanni sevmoq imondandir”, deyilgan hikmatni esga olish kifoyadir. Vatanni sevish insonga xos tabiiy tuyg‘udir.

Musulmon mutafakkiri, tarixchi olim, o‘z davrida Qohira shahrida shariat oliv qozisi lavozimida ishlagan Ibn Xaldun “Vatan – bu insonning tug‘ilib o‘sgan yeri, uning go‘daklik chog‘idanoq mehr qo‘ygan o‘chog‘idir”, deb ta’rif bergen [10].

Inson o‘z Vatani ravnaqi uchun fidoiylik ko‘rsatishi, bu yo‘lda kerak bo‘lsa, jonini ham berishga tayyor bo‘lishi lozim. Vatanni sevish va ayniqsa, bu sevgini amalda namoyon qilish unchalik oson ish emas. Bu insondon juda katta jasoratni, bardoshni, chidamni talab qiladi. Qizig‘i shundaki, Vatan o‘z farzandlaridan har-bir lahza jon fido qilishini talab qilmaydi. Bu yo‘lda sodir bo‘ladigan fidoiylik eng yuksak jasorat bo‘lib, u kutilmagan hollarda ro‘y beradi, lekin Vatan sevgisi insondon bir qarashda mahobatli ko‘rinmaydigan, insonning oddiy faoliyatidan kam farq qiladigan, aslida esa juda mashaqqatli mehnatdan iborat bo‘lgan kundalik jasoratni talab qiladi. Donishmandlardan birining aytishicha: “Vatan bir bog‘dir, Vatanning sodiq farzandlari bu bog‘ni o‘z yurak qonlari ila sug‘ormaklari darkor” [11].

Ona Vatani, millati va xalqini sevish, demakki, vatanparvarlik, millatparvarlik

va xalqparvarlik xislatlari inson ma'naviyatining asosiy ijtimoiy omillaridir. Ma'naviyatli insonlar ko'paygan jamiyatda aql, sog'lom fikr, yaxshi xulq, insof va adolat tantana qilib, turli salbiy illatlar barham topadi. Natijada jamiyat a'zolarining keljakka ishonchi ortib, ular o'z faoliyatlarini Vatan va xalq ravnaqi yo'lida safarbar etadi [12].

Vatanparvarlik shaxs ma'naviyatining ajralmas qismi ekani asoslangan. Haqiqatdan ham, o'z Vatanini sevmagan, uning taraqqiyoti uchun joy kuydirmaydigan, beparvo va loqayd inson ma'naviy jihatdan barkamol bo'lishi mumkin emas [13].

Ma'naviyati yuksak kishi birovning haqiga, davlat, jamoa mulkiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi, Vatani, elu yurti, xalqi uchun jonini fido etishga tayyor turadi. Buning aksi o'laroq, ma'naviyati qashshoq kishilar nopok, firibgar, poraxo'r, o'g'ri, qallob bo'lib, Vatan va millat manfaatlariga befarq qaraydi [14].

So'zining ustidan chiqmaydigan, atrof-muhitga befarq, qat'iyatsiz, beburd va munofiq kimsalar o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga xiyonat qilishgacha borishi mumkin [15].

Jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltiruvchi, tafakkur rivojida beqiyos ahamiyat kasb etadigan qadriyat shakllari ma'naviy qadriyatlar tushuniladi. (Masalan, urf-odatlar, an'analar, Vatanni sevish, o'z xalqi va millatini hurmat qilish, ota-onasini e'zozlash, tinchlik va totuvlikni saqlash va hokazo)

Bizning ustuvor vazifamiz - inson salohiyatini ro'yobga chiqarishga har tomonlama ko'maklashish, uning asosiy huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Bu jamiyatda tinchlik va barqarorlik, farovon hayotni ta'minlashning asosiy shartidir. Afsuski, bugungi kunda barchamiz mazkur ijobiy jarayonga to'sqinlik qilayotgan murakkab va ziddiyatli tendensiyalar mavjudligiga guvoh bo'lib turibmiz. Bu o'rinda so'z jahonda, jumladan, Janubi-Sharqiy Osiyodan tortib Yaqin Sharqqacha bo'lgan makonda qurolli to'qnashuvlar kuchayib, o'zaro ishonchsizlik va nizolar, millatlararo va konfessiyalararo ixtiloflar chuqurlashib borayotgani, barqaror taraqqiyotga qarshi boshqa global tahdid va xatarlar paydo bo'layotgani haqida bormoqda [16].

Yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligiga, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan kuchlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmaydi [17].

Mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikning eng muhim muammolarini hal etish, shu jumladan Afg'onistonidagi vaziyatni tartibga solishga ko'maklashish, transchegaraviy suv oqimlari resurslaridan foydalanish masalalarini hal etish, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonlarini tugallash, ekologik barqarorlikni ta'minlash, favqulodda vaziyatlarga hamda tabiiy va

texnogen xususiyatdagi transchegaraviy tahdidlarga e'tibor qaratish yuzasidan ta'sirchan chora-tadbirlarni ko'rish;

mintaqadagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikka tashqi hamda ichki tahidlar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va ularni neytrallashtirish, ekstremizm, terrorizm, uyushgan hamda transchegaraviy jinoyatchilikka qarshi kurashish borasida Markaziy Osiyodagi barcha mamlakatlar bilan o'zaro hamfikrlik va amaliy hamkorlikni mustahkamlash kabi vazifalar belgilangan [18].

Xalqimiz uchun aziz va qadrli bo'lgan mehr oqibat, sahovat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharm-hayo, bosiqlik, sabrlilik, ulug'vorlik, xalollik kabi ma'naviy fazilatlar va oilada bola tarbiyasi, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, oqko'ngillilik, mehnatkashlik kabi milliy qadriyatlar aynan urf-odat va ana'analar orqali qaror topadi. O'zbek oilasida ota-onaga, qo'shnilar, mahalla va keksalarga hurmat-ehtirom, jamoaga, el-yurtga, turli bayram va marosimlarga hurmatda bo'lish kabi munosabatlar o'rgatiladi [19].

Insonning obro'-e'tibori kiyinishi, savlati bilan emas, balki yetim-yesirlarga, nogironlarga, muhtojlarga, keksalarga mehribonligi bilan o'chanadi. Ma'rakadan qolmaslik kerak, to'ylarga bormaslik mumkin, lekin azada azador bilan birga bo'lish kerak. Yetim-yesirning boshini silagan, ulardan yordamini ayamagan odam hech qachon xor bo'lmaydi. Xalqqa va Vatanga sadoqat ota-onaga sadoqatdan boshlanadi. Ota-onasi rozi insondan xudo ham rozi.

Shunday holatlar bo'lishi mumkinki, jinoyat qilish, bir tomondan niyati buzuq kimsalarning salbiy ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan, farzandlarimizning ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksalmaganligi oqibatida vujudga keladi. Natijada ular o'z ota-onalari boshiga ham g'am tashvish keltirmoqda. Biz har doim, faoliyatimizda kadrlar tarbiyasiga e'tibor berishimiz kerak. Turli darajadagi lavozimlarda ishlaganimiz bilan birinchi navbatda ota-onalari ekanligimizni, farzandlar kamoli uchun mas'ulligimizni unutmasligimiz kerak. Jamiyatimizda oldindan ota-onaga hurmat, ehtirom ko'rsatish fazilati biz uchun qadriyat bo'lib qolgan. Har bir farzand ota-onasi bilan faxrlanishi kerak. Ota-onalari ham o'z navbatida farzandlarga munosib kishilar bo'lishi taqozo etadi. Biz qadriyatlarimizga riosa qilishga katta ahamiyat bermog'imiz kerak.

Ta'lim-tarbiya berayotgan ota-onalarga raxmat aytishimiz kerak, ularga ta'zim qilishimiz kerak. Ota-onalarimizda mas'uliyat katta buni anglashimiz kerak. Ilmi, odobli, ertangi kunini o'ylaydigan farzand ota-onaning eng katta boyligi hisoblanadi. Sog'lom farzand faqat sog'lom oilada tug'iladi. Oiladagi muhit, ota-onaning totuvligi, bir-birini tushunishi, qo'llab quvvatlashi, o'zaro izzat-hurmati bilan izohlanadi. Har bir fuqaro, tarbiyalab oq yuvib-oq tarab voyaga yetkazgan ota-onasi oldidagi qarzini ado etishi, ularni rozi qilishi insoniy burchdir. Tinch hayotimiz, musaffo osmonimiz, farzandlarimizning quvnoq kulgusi, ota-onalarimizning osuda umr kechirishi mana shunday hayotimiz, uni asrab-avaylash, ko'z qorachig'iday saqlash yoshlarning

qo‘lidadir.

Bu dunyoda har bir inson o‘zining mehribon ota-onasiga, nisbatan hamisha minnatdorlik tuyg‘usi bilan yashaydi. Inson umri davomida qanday yutuqlarga erishmasin, qaerda, qanday lavozimda bo‘lmasin, nafaqat ota-ona, balki maktab dargohida olgan ta’lim-tarbiyasi uning yetuk shaxs mutaxassis bo‘lib shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ota-ona farzandlarning murg‘ak qalblarga ezgulik yog‘dusini baxsh etadigan, mo‘tabar zotdir. Ota-onasi bor insonlarning oilasida fayz va ziyo bo‘ladi. Globallashuv jarayonida halqlar o‘z qadryatlarini saqlab qolishlari va kelgusi avlodlarga yetkazishi bilan bog‘liq mas’uliyat dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda zimmasiga mas’uliyat olishdan qochmaydigan kishilar ishlaydigan davr. Barcha narsani bir inson boshqarishi qiyin, hamma narsaga boshliq javob beradi, deb mas’uliyat olishdan qo‘rqib o‘tirish mumkin bo‘lgan shaxslar ham yo‘q emas. Boshqaruv tizimining barcha bo‘g‘inlariga mas’uliyat teng taqsimlanishi kerak. Jamiyatda shunday insonlar borki, kuzatuvchi maqomiday tuyuladi. Jamiyatda bahona qilib, arzon obro‘ orttirib qolish payida bo‘lish yomon illatlar ham mavjud, buni hayotiy tajribaning o‘zi tasdiqlab turibdi.

Har bir inson lavozimidan qat’iy nazar va’da bergen bo‘lsa, va’dasini bajarishi, agar zaiflik qilsa, o‘z o‘rnini bo‘shatishi kerak. Bitta zaif mansabdar shaxs tufayli minglab odam zarar ko‘rishi mumkin. Shuni to‘g‘ri tushunishimiz kerak. Hamma joyda o‘z mas’uliyatini sezmagan, insonlarning boshini qovushtirolmagan shaxslar xayotida biror amaliy ish qilmagan inson aql o‘rgatishi bilan jamiyatga zarar yetkazishi mumkin.

Jamiyat adolatsizlikka chidamaydi, buni unutish mansabdar shaxsni salbiy tomonlari desak, agar adashmagan bo‘lamiz. O‘z qadrini bilgan inson maqtovga zoriqmaydi, mas’uliyatli burchni og‘ishmay, halol ado etish uchun juda katta aql-idrok va fahm-farosat kerak bo‘ladi.

Inson o‘z burchini anglagani sari uning zimmasida mas’uliyat hissi ortib boradi. Qachonki inson oilasi oldidagi burchni anglab yetsa, u jamiyat oldida mas’ulligini tushunadi. Qachon inson jamiyat oldidagi burchini anglasa, unda shaxsiy daxldorlik hissi paydo bo‘ladi [20].

Shaxsning erkinlik va ijtimoiy mas’uliyatga ongli munosabatini shakllantirishda yana bir muhim omil bu ijtimoiy muhitdir. Ijtimoiy muhitni qay darajada shakllanganligiga qarab yoshlarda mas’uliyat tuyg‘usi qaror topadi va aksincha. Ma’lumki, har bir shaxs o‘z atrofida kishilarning ma’naviy madadini sezib tursagina uning qobiliyati va insoniy hususiyatlarida o‘sish, rivojlanish, o‘zlikni anglash sodir bo‘ladi. Bu jihatdan ijtimoiy tarbiyani amalga oshirishda ijtimoiy muhitning roli ayniqsa kattadir [21].

Fuqaro daxldorligi — biror-bir faoliyatga, jarayonga aloqadorlik, sheriklikdir. Har bir fuqaro Vatan taqdiriga shaxsiy daxldorlik tuyg‘usi bilan yashasa, uning jamiyat

oldidagi burchi va mas’uliyati ham kuchayib boradi. Daxldorlik hissi insonlarni birlashtiradi, shuning uchun daxldorlik va mas’uliyatni kundalik faoliyatiga aylantirgan inson haqiqiy ma’naviyatli inson hisoblanadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylab kelgusi avlodlarga yetkazish uchun shu yurtda yashovchi har bir fuqaro mas’uldir [22].

Har bir oila, har bir inson va har bir tashkilot va jamoa manfaatlariga daxldor ekanini esidan chiqarmaslik kerak, bugungi olib borilayotgan islohotning maqsadi aholi keng tabaqalarini mulkka chinakam daxldor qilish, shu asosda tashabbuskorlik va ishbilarmonlik uchun shart-sharoit yaratish nazarda tutiladi.

Milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, inson ma’naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlanmoqda. Insonlarda o’zligini anglash, oriyat, tarixidan faxrlanish, porloq kelajakni barpo etishdan g‘ururlanish kabi tuyg‘ular kamol topmoqda, jamiyatning ertangi kunga ishonchi ortib bormoqda.

Insonning ma’naviy kamolotiga, ma’rifatiga davlat siyosati sifatida qarash lozim. Insonlar ongidagi milliy iftixor tuyg‘usi bilan boshqa millatlarning tarixi, madaniyati va qadr-qimmatini hurmat qilishning dialektik uyg‘unligini ta’minlash zarur. Jamiyat ongida hozirgi kunda ro‘y berayotgan barcha hodisalarga daxldorlik va mas’ullik hissini vujudga keltirish va doimo mustahkamlab borish kerak. Hozirgi yoshlarda va kelgusi avlodda o‘z davlati, xalqining tarixini shak-shubhasiz bilish bilan bir qatorda, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o‘rganish zarurligini tushunish va anglash hissini tarbiyalash lozim.

Xulosa o‘rnida, jamiyatimizning boyligi inson ekan, yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalashda ma’naviyat, madaniyat, ma’rifat bilan to‘yintirishimiz ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan qadriyatlarimizni asrab avaylab, yuksaltirib, kelajak avlodga yetkazishimiz darkor. Insonlarda ma’naviy fazilatlari ko‘p bo‘lsa, o‘zgalarning e’tiborini tortadi. Milliy qadriyatlarimiz bo‘lgan ma’naviy fazilatlarni yuksaltiradigan asosiy mezonlar, millatning tarixi, urf-odati, an’anasi, hayotiy qadriyatlar bilan birga ma’naviy merosi, madaniy boyliklari va ko‘hna tarixiy yodgorliklari hisoblanadi. Bizning ma’naviy boyligimiz, yoshlarda o‘zaro hurmat, mehr-oqibat, vatanga muhabbatni shakllantiradi. Vatan uchun jon kuydiradigan fidoyi farzand bo‘lishga da’vat etishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlar o‘tgan davrlardan qadriyat bo‘lib kelayotgan merosimizdan qanchalik saboq olsa, ma’naviyatli inson sifatida yuksalib boraveradi. Chunki qadriyatlarimiz insonning iyomon-e’tiqodli, ma’naviyatli va ma’rifatli bo‘lishiga qaratilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

[1] “Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoevning Oliy majlisga Murojaatnomasi

hamda O‘zbekiston yoshlari forumida so‘zlagan nutqidan iqtiboslar) [Matn]: publitsistika. – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 47 b.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev. Insonparvarlik, ezungulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir [Matn]: – Toshkent: Tasvir nashriyot uyi, 2021. – 9 b.

[3] U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. nashriyoti, Toshkent 2019. 165- b.

[4] Shu manbaa. – 66 b.

[5] G. Almurotova. Oriental Renaissance: Innovative, (E)ISSN:2181-1784 educational, natural and social sciences www.oriens.uz SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7 3(4/2), April, 2023.

[6] U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. nashriyoti, Toshkent 2019. 77-b.

[7] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 603-b.

[8] R. Ruzieva. Urf-odat va an’analari – milliy qadriyatlarni shakllantiradigan mezon sifatida. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 4 | 2021 ISSN: 2181-1601.

[9] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 37-b.

[10] O‘. Hasanbaev. Vatanni sevish imondandir. Hidoyat jurnalining 8 son 2021. Elektron resurs <https://hidoyat.uz> Murojaat sanasi 12.02.2025.

[11] M. Muminjonov. Vatanni sevmoq ulkan fazilat. Elektron resurs <https://arroziy.uz>. Murojaat sanasi 12.02.2025.

[12] O.Salimov, X.Sultonov, A.Abduvaxitov, D.Kenjaev, A.A’zamov, M.Hojimatov, M.Quronov, Q.Nazarov (tuzuvchi va mas’ul muharrir) Ma’naviyat asosiy tushunchalar lug‘ati “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, Toshkent 2021. 214-b.

[13] O’sha manbaa. 411-b.

[14] O’sha manbaa. 255-b.

[15] O’sha manbaa. 76-b.

[16] Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] / Sh.M. Mirziyoev. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 22 b.

[17] O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni

rivojlantirishning falsafiy, huquqiy va sotsiologik muammolari. - Chirchiq.: 2020. – 139 b.

[18] O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasining qonuni O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida. Toshkent sh., 2018 yil 9- yanvar, O‘RQ-458-son. 5-b.

[19] O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishning falsafiy, huquqiy va sotsiologik muammolari. - Chirchiq.: 2020. – 135 b.

[20] U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. **nashriyoti, Toshkent 2019. 36- b.**

[21] O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash borasida rahbar kadrlar oldida turgan vazifalar: mavjud holat, muammolar va yechimlar: Respublika ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi. Toshkent, 2019. - 15 b.

[22] U. Alimov. Oilada farzand tarbiyasi “Movarounnahr”. nashriyoti, Toshkent 2019. 36- b.